



## PROFESSIONAL FUTBOLCHILARNING IMIDJ HUQUQLARI VA ULARNI TIJORATLASHTIRISHDA FUQAROLIK- HUQUQIY VOSITALAR

Oybek Ibrohimxonov

TDYU mustaqil izlanuvchisi

<https://doi.org/10.5281/zenodo.20725394>

### ARTICLE INFO

Received: 1st June 2026

Accepted: 5<sup>th</sup> June 2026

Published: 13<sup>th</sup> June 2026

#### KEYWORDS

*imidj huquqlari, futbolchi shaxsiy huquqlari, tijorat litsenziyasi, intellektual mulk, spin-off kompaniya, NFT, O'zbekiston sport huquqi, xorijiy tajriba, fuqarolik-huquqiy vositalar, de lege ferenda.*

### ABSTRACT

*Ushbu tezisda professional futbolchilarning imidj huquqlari (image rights) fuqarolik-huquqiy tabiati, ularni tijoratlashtirish mexanizmlari va xalqaro tajribani tahlil qilish orqali O'zbekiston Respublikasida ushbu sohadagi huquqiy tartibga solishni takomillashtirish bo'yicha ilmiy asoslangan taklif va xulosalar ishlab chiqilgan. Maqolada G'arb mamlakatlarida (Angliya, Ispaniya, Germaniya) futbolchilar imidj huquqlarini tartibga soluvchi asosiy modellar qiyosiy tahlil qilingan, jumladan, litsenziya shartnomasi, spin-off kompaniyalar, franchayzing va NFT texnologiyalariga asoslangan zamonaviy tijoratlashtirish vositalari ko'rib chiqilgan. O'zbekistonda 2020–2026-yillarda amalga oshirilgan huquqiy islohotlar sharoitida imidj huquqlari institutini shakllantirishga qaratilgan **de lege ferenda** takliflar ilgari surilgan*

**Kirish.** Globallashuv va raqamli iqtisodiyot sharoitida professional sport – birinchi navbatda futbol – oddiy jismoniy faoliyat doirasidan chiqib, miqyosi jihatidan yirik tijorat industriyasiga aylandi. Bu o'zgarish futbolchi shaxsiyatiga – uning ismi, tasviri, ovozi va boshqa o'ziga xos belgilariga – alohida iqtisodiy qiymat berdi. Aynan mana shu qiymat “imidj huquqlari” (image rights) tushunchasi ostida huquqiy kategoriya sifatida shakllana boshladi va hozirda dunyoning rivojlangan sport huquqi tizimlarida mustaqil tartibga solish obyektiga aylangan.

Yangi O'zbekistonda so'nggi yillarda professional futbol jadal rivojlanmoqda. Jumladan, 2025-yilda qabul qilingan “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi yangi qonun<sup>1</sup>, O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasining FIFA va UEFA standartlarini joriy etish bo'yicha strategik dasturi, xorijiy investitsiyalarni jalb qilish ishlari – bularning barchasi futbol sohasidagi huquqiy munosabatlarni yangicha tartibga solish zaruriyatini kun tartibiga qo'yimoqda<sup>2</sup>.

<sup>1</sup> O'zbekiston Respublikasining “Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida”gi qonuni, 2025-yil 25-mart, O'RB-1123-son. Qonunning 33-moddasi sportchining huquq va majburiyatlarini umumiy tarzda belgilaydi, lekin imidj huquqlari alohida tartibga solinmagan.

<sup>2</sup> O'zbekiston Futbol Assotsiatsiyasining 2021–2030 yillarga mo'ljallangan strategik rivojlanish Dasturi. <https://ufa.uz/uz/strategy> (murojaat qilingan sana: 10.05.2026). FIFA Forward 2.0 dasturi doirasida moliyaviy hamkorlik qayd etilgan.

Ayni vaqtda milliy qonunchilikda futbolchilarning imidj huquqlarini mustaqil obyekt sifatida e'tirof etuvchi normalar mavjud emas<sup>3</sup>.

Tezisning asosiy maqsadi –ushbu muammolarning huquqiy ildizlarini aniqlash, xorijiy tajribani qiyosiy tahlil qilish va O'zbekiston qonunchiligi uchun ilmiy asoslangan yechimlar taklif qilishdir. Metodologiya qiyosiy-huquqiy, tizimli-tahliliy va formal-huquqiy usullarga asoslanadi.

**Imidj huquqlarining huquqiy tabiati va asoslari.** Imidj huquqlari (image rights, droit à l'image, Bildnisrecht) – bu shaxsning o'z ismi, tasviri, ovozi, imzosi, laqabi va boshqa individuallashtiruvchi belgilaridan foydalanish bo'yicha monopol vakolatini ifodalovchi subyektiv huquqlar majmui<sup>4</sup>.

Huquq fanlariga oid adabiyotlarda imidj huquqlarining uch asosiy kontsepsiyasi mavjud: Shaxsiy huquqlar, intellektual mulk yondashuvi va aralash (dualistik) yondashuv.

– *Shaxsiy huquqlar (personal rights) yondashuvi* — anglo-sakson tizimida keng tarqalgan bo'lib, imidj huquqlarini shaxsning nomoddiy, lekin mulkiy qiymatga ega huquqi sifatida talqin etadi (right of publicity doktrinasini)<sup>5</sup>;

– *Intellektual mulk yondashuvi* — kontinental Yevropa mamlakatlarida qo'llaniladigan bo'lib, imidj huquqlarini shaxsning o'z tasviriga nisbatan maxsus mualliflik yoki qo'shni huquqlarga tenglashtirishga intiladi<sup>6</sup>;

– *Aralash (dualistik) yondashuv* — zamonaviy milliy qonunchilik va xalqaro arbitraj amaliyotida ustuvorlik qilayotgan model bo'lib, imidj huquqlarini ham shaxsiy, ham mulkiy elementlarni o'zida mujassam etgan mustaqil huquqiy institut sifatida e'tirof etadi<sup>7</sup>.

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasi shaxsning tasviriga bo'lgan huquqini belgilaydi, lekin bu norma asosan himoya funksiyasini bajaradi va tijoratlashtirish mexanizmlarini tartibga solmaydi<sup>8</sup>.

Professional futbolchi maqomida imidj huquqlarining obyektlari quyidagilarni o'z ichiga oladi:

– *To'liq ism va familiya* (shu jumladan taxallusi va laqabi). Masalan, “Raul”, “Ronaldo”, “Messi” alohida brendlashgan nomlar sifatida tijorat va reklama faoliyatida mustaqil qiymat kasb etadi;

– *Tashqi ko'rinish va portret tasviri*: foto, video, 3D model, animatsiya;

– *Ovoz va nutq xususiyatlari*;

– *Imzo*;

– *O'yinda qo'llaniladigan individual uslub va texnika* (signature move);

<sup>3</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining 99-moddasida tasvirdan foydalanishga ruxsat berish yoki uni taqiqlash huquqini belgilaydi, ammo tijorat litsenziyasi mexanizmini tartibga solmaydi.

<sup>4</sup> Blackshaw, I.S. & Siekmann, R.C.R. (eds). Sport Image Rights in Europe. T.M.C. Asser Press, The Hague, 2005. ISBN: 978-90-6704-187-3. Kitobda 12 ta Yevropa mamlakatining imidj huquqlari tizimi qiyosiy tahlil qilingan.

<sup>5</sup> Netzle, S. “Image Rights of Athletes”. The International Sports Law Journal (ISLJ), 2003, No. 1-2, pp. 14–21. Maqolada imidj huquqlarining uch asosiy kontsepsiyasi — shaxsiy, intellektual mulk va dualistik yondashuvlar — taqqoslab o'rganilgan.

<sup>6</sup> World Intellectual Property Organization (WIPO). “The Right of Publicity”. WIPO Magazine, Issue 1/2017. [https://www.wipo.int/wipo\\_magazine/en/2017/01/article\\_0006.html](https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2017/01/article_0006.html). Xalqaro darajada shaxsiy imidj huquqlarining intellektual mulk tizimidagi o'rni tahlil qilingan.

<sup>7</sup> Gardiner, S., James, M., O'Leary, J., Welch, R. Sports Law. 5th edition. Routledge, London, 2017. ISBN: 978-1-138-89683-4. Ish 14-bobida (pp. 441–479) sportchi imidj huquqlari va tijoratlashtirish masalalari batafsil yoritilgan.

<sup>8</sup> Rossiya Federatsiyasi FK 152<sup>1</sup>-moddasi “Fuqaroning tasviri” – bu norma O'zbekiston Respublikasi FK 99-moddasiga yaqin, lekin keyingi isloh yo'li bilan yanada to'ldirilib borilgan.

–*Raqamli shaxsiyat* (digital identity): o‘yinchi avatarlari, FIFA/EA Sports video o‘yinlaridagi simulyatsiyalar;

–*NFT va metaverse tasvirlari*<sup>9</sup>.

**1-jadval.**

Obyekt turi	Tijoratda qo‘llanilishi	Huquqiy asosi
Ism va laqab	homiylilik, brendlash, tovar belgisi	Trademark, shaxsiy huquqlari
Portret tasviri	reklama, kartochka, video o‘yin	Shaxsiy va mualliflik huquqlari
Raqamli avatar	FIFA/PES, metaverse	Litsenziya shartnomasi
NFT	Kriptoalyuta platformalari	Maxsus litsenziya, smart-kontrakt
Imzo	Kolleksion buyumlar, memorabilia	Shaxsiy huquqlar

**Professional futbolchi imidj huquqlari obyektlari tasnifi**

Amaliyotdagi eng muhim huquqiy masalalardan biri –professional futbolchi bilan klub o‘rtasidagi mehnat (ish haqi) munosabatlari va imidj huquqlari bo‘yicha munosabatlarni bir-biridan aniq farqlash zaruriyatidir. Chunki, mehnat shartnomasi – futbolchining maydon ichidagi faoliyati, maoshi, bonuslari va sport ko‘rsatkichlarini tartibga solidi, imidj huquqlari shartnomasi esa –futbolchi nomidan, tasviridan foydalanish tartibini va shu yo‘l bilan olinadigan daromad taqsimotini belgilaydi. Bu amaliyotning iqtisodiy ahamiyati shundaki, imidj huquqiy tushumlar ko‘pincha ish haqiga nisbatan boshqacha soliq rejimiga tushadi. Ispaniya va Angliyada bu borada yirik sudlar ham bo‘lgan<sup>1011</sup>.

**Xorijiy tajriba: qiyosiy tahlil. Angliya modeli.** Angliya – imidj huquqlari sohasida eng rivojlangan huquqiy tizimga ega mamlakatlardan biri. Ingliz modeli uchta asosiy poydevorga tayanadi. Bular passing off doktrinasi, tovar belgisi huquqi va spin-off kompaniyalar tizimi.

*Birinchi*dan, passing off doktrinasi – agar uchinchi shaxs futbolchining nomi yoki tasviridan uning roziligisiz foydalansa va bu o‘quvchida noto‘g‘ri taassurot yaratsa, futbolchi tort huquqi asosida sud muhofazasiga murojaat qila oladi<sup>1213</sup>;

<sup>9</sup> Dapper Labs. NBA Top Shot Platform Overview, 2021. URL: <https://nbatopshot.com>. 2020-2022-yillarda NBA Top Shot platformasi NBA o‘yinчилari kliplaridan yaratilgan NFTlarni sotishdan \$800 million + daromad oladi. Bu raqamli imidj huquqlarini tijoratlashtirish imkoniyatini ko‘rsatuvchi dastlabki katta miqyosdagi misol.

<sup>10</sup> HM Revenue & Customs (HMRC). Employment Income Manual, EIM64200: Image Rights Payments. <https://www.gov.uk/hmrc-internal-manuals/employment-income-manual/eim64200>. HMRC imidj huquqlari to‘lovlarini mehnat daromadidan ajratishning shartlarini belgilagan.

<sup>11</sup> Tribunal Superior de Justicia de Cataluña, Sala de lo Contencioso-Administrativo, Sentencia núm. 685/2016. Messi va uning otasiga qarshi Ispaniya soliq organi (AEAT) tomonidan qo‘zg‘atilgan ish: imidj huquqlari to‘lovlari offshor kompaniyalar orqali o‘tkazilganligi fiskal qoidabuzarlik deb topilgan.

<sup>12</sup> Irvine and others v Talksport Ltd [2003] EWCA Civ 423 (Court of Appeal, England and Wales). Bu ish Ingliz sudlari passing off doktrinasini sportchi imidj huquqlariga qo‘llagan muhim pretsedentdir. Formulachining tasviri roziligisiz ishlatilganligi isbotlangan va

*Ikkinchidan*, tovar belgisi huquqi – professional futbolchilar o‘z nomlarini Intellectual Property Office (IPO) orqali tovar belgisi sifatida ro‘yxatdan o‘tkazadi<sup>14</sup>;

*Uchinchidan*, spin-off kompaniyalar tizimi – futbolchilar o‘z imidj huquqlarini maxsus tashkil etilgan shaxsiy kompaniyalarga topshiradi.

Ingliz tizimining o‘ziga xos xususiyati – Premier Leaguening maxsus “Imidj huquqlari reglamenti” bo‘lib, u o‘yinchi va klub o‘rtasidagi imidj huquqlari litsenziya to‘lovlarining chegarasini (odatda asosiy ish haqining 20 foizigacha) belgilaydi<sup>15</sup>.

*Ispaniya modeli*. Ispaniyada imidj huquqlarini tartibga solish 1998-yilgi “Shaxsning sharaf, shaxsiy hayot daxlsizligi va o‘z tasviri haqidagi huquqini himoya qilish to‘g‘risida”gi 1/1982-son organik qonun bilan boshlanadi<sup>16</sup>. La Liga qoidalariga muvofiq, barcha futbolchilar o‘z imidj huquqlarining bir qismini (kollektiv imidj) La Liganing markaziy pul fondiga topshiradi<sup>17</sup>.

Ispaniyaning xalqaro e‘tiborini tortgan muhim xususiyati – futbolchilarning imidj huquqlaridan keladigan daromadlarga alohida soliq rejimi mavjudligi. 2004-yilgi “**Beckham qonuni**” chet el fuqarolariga 24 foizlik soliq stavkasini joriy etadi<sup>18</sup>.

*Germaniya modeli*. Germaniya imidj huquqlari doktrinasini konstitutsiyaviy asosga ega. Asosiy qonunning 1-moddasi (insoniy qadr-qimmat deb ataladi) va 2-moddasi (shaxsning erkin rivojlanishi deb ataladi) birgalikda umumiy shaxsiy huquq (allgemeines Persönlichkeitsrecht) doktrinasini yaratadi<sup>19</sup>. Bundesligada imidj huquqlari masalasi DFLning standart shartnoma shartlari orqali tartibga solinadi.

Germaniyaning o‘ziga xos hissi – BGH (Federal Oliy Sud) tomonidan ishlab chiqilgan “mercantile value” (vermögenswerte Bestandteile) doktrinasini bo‘lib, u imidj huquqlarining meros qilib qoldirilishi va boshqa shaxslarga o‘tkazilishi mumkinligini tasdiqlaydi.

*FIFA va UEFA reglamentlari*. Xalqaro darajada imidj huquqlarini tartibga solishda FIFAning Transfer qoidalari (RSTP) muhim ahamiyat kasb etadi. RSTPning 15-moddasi futbolchining imidj huquqlarini u xizmat qiladigan klubdan ajratib, alohida shaxsiy litsenziya sifatida rasmiylashtirilishi mumkinligini nazarda tutadi<sup>20</sup>. UEFAning Club Licensing and Financial

zararlar undirilgan.

<sup>13</sup> Henderson v Radio Corporation Pty Ltd [1969] RPC 218 (NSW Supreme Court, Australia). Bu ishda professional raqqosaning ruxsatsiz foydalanilgan tasviriga nisbatan passing off da‘vosi muvaffaqiyatli bo‘lgan, ingliz sudlari ushbu pretsedentdan keyinchalik faol foydalangan.

<sup>14</sup> UK Intellectual Property Office (IPO). Trade Marks Registry. Registered Trade Marks Search. <https://www.ipo.gov.uk/tmcase>. Manchester United FC va David Beckham tovar belgilarini 2000-yillarda ro‘yxatdan o‘tkazgan.

<sup>15</sup> Premier League, Rules and Regulations, 2023–24 season. Rule K: Contracts. Image rights payments cap at 20% of basic wage for non-domiciled players. FA Premier League Limited, London.

<sup>16</sup> Ley Orgánica 1/1982, de 5 de mayo, de Protección Civil del Derecho al Honor, a la Intimidación Personal y Familiar y a la Propia Imagen. BOE núm. 115, de 14/05/1982. Qonunning 8(2) moddasi sportchilarning jamoat tomonidan ko‘rilgan tasviri masalasini tartibga soladi.

<sup>17</sup> Real Decreto 1006/1985, de 26 de junio, por el que se regula la relación laboral especial de los deportistas profesionales. 7-modda: “Derechos de imagen”. La Liga Statut des Footballeurs Professionnels bilan birgalikda kollektiv imidj huquqlari fondini belgilaydi.

<sup>18</sup> Ley 35/2006, de 28 de noviembre, del Impuesto sobre la Renta de las Personas Físicas. Ilgari amaldagi bo‘lgan Ley 2/2004 (“Ley Beckham”) chet el fuqarolariga 24% imtiyozli soliq stavkasini bergan. 2010-yildan yuqori daromadli sportchilarga ushbu imtiyoz bekor qilingan.

<sup>19</sup> Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland, 23. Mai 1949. Art. 1 Abs. 1: “Die Würde des Menschen ist unantastbar”; Art. 2 Abs. 1: allgemeine Handlungsfreiheit. Bundesverfassungsgericht ushbu moddalardan kelib chiqib umumiy shaxsiy huquq doktrinasini ishlab chiqqan.

<sup>20</sup> FIFA. Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP). Edition 2023. Article 15: Special provisions for players under contract, with image rights clarifications. Zurich: FIFA. URL: <https://www.fifa.com/legal/football-regulatory/status-and-transfer-of-players>.

Sustainability Regulations hujjati esa imidj huquqlari shartnomalari moliyaviy hisobot doirasiga kiritilishi va ularning “bozor qiymatiga” muvofiqi tekshirilishini talab qiladi<sup>21</sup>.

Xalqaro sport arbitraj sudi (CAS) ham imidj huquqlari bo'yicha bir qancha muhim qarorlar chiqargan. CAS 2016/A/4903 ishida arbitraj “yuzaga chiqish nisbati” (exposure ratio) kriteriyasini qo'llagan.

2-jadval

Mezon	Angliya	Ispaniya	Germaniya	O'zbekiston
Huquqiy asos	Common law + Trademark	Organik qonun 1/1982	Konstitutsiya + BGB	FK 99-modda (qisman)
Alohida shartnoma	Ha (Image Rights Agr.)	Ha (consentimiento)	Ha (Annex)	Yo'q
Spin-off kompaniya	Keng qo'llaniladi	Qo'llaniladi	Qo'llaniladi	Huquqiy asos yo'q
Tovar belgisi	Ha	Ha	Ha	Imkoniyat bor, amaliyot yo'q
Alohida soliq rejimi	Ha (20% cap)	Ha (Beckham qonuni)	Qisman	Yo'q
NFT/Raqamli huquq	Rivojlanayotgan	Rivojlanayotgan	Rivojlanayotgan	Tartibga solinmagan

**Imidj huquqlarini tartibga solishning qiyosiy tahlili**

**Fuqarolik-huquqiy munosabatlar va tijoratlashtirish masalalari. Litsenziya shartnomasi.** Imidj huquqlarini tijoratlashtirish jarayonida litsenziya shartnomasi (license agreement) markaziy o'rinni egallaydi. Bu shartnoma orqali futbolchi (litsenziar) o'z imidj obyektlaridan foydalanish huquqini uchinchi shaxsga (litsenziat) ma'lum shartlar asosida beradi:

Eksklyuziv litsenziya –litsenziat berilgan soha yoki hudud doirasida yagona foydalanuvchi sifatida harakat qiladi. Bunday shartnomalar yuqori to'lov miqdorini nazarda tutadi<sup>22</sup>. Noeksklyuziv litsenziya (non-exclusive license) – bir necha litsenziatga bir vaqtning o'zida berilishi mumkin. Futbolchi kartochkalarini ishlab chiqaruvchi kompaniyalar odatda ko'p futbolchilar bilan noeksklyuziv litsenziyalar tuzadi<sup>23</sup>.

<sup>21</sup> UEFA. Club Licensing and Financial Sustainability Regulations. Edition 2022. Article 53: Related party transactions including image rights agreements must reflect fair market value. Nyon: UEFA.

<sup>22</sup> Forbes. “Cristiano Ronaldo's Lifetime Nike Deal: Details Revealed”, 2016-yil 7-noyabr. <https://www.forbes.com/sites/kurtbadenhausen/2016/11/07/cristiano-ronaldos-lifetime-nike-deal/>. Eksklyuziv litsenziyaning amaliy namunasi sifatida keltirilgan.

<sup>23</sup> Panini Group, Annual Report 2022. Image rights licensing framework: Panini signs non-exclusive image rights agreements with 1,500+ footballers annually. URL: <https://www.panini.it/corporate>. Noeksklyuziv litsenziya modelining yirik miqyosdagi misolini

O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining intellektual mulkka oid IV bo'limi litsenziya shartnomasining umumiy qoidalarini belgilaydi, biroq u asosan mualliflik huquqi va patentlar (turdosh huquqlar), tovar belgilari va boshqalarga mo'ljallangan<sup>24</sup>.

**Spin-off kompaniyalar.** Hozirda ko'plab yuqori daromadli professional futbolchilar o'z imidj huquqlarini maxsus tashkil etilgan xususiy kompaniyalar (Image Rights Company — IRC) orqali boshqarishni afzal biladi. Ushbu mexanizm quyidagicha bir qancha afzalliklarni beradi<sup>25</sup>:

– korporativ soliq daromad solig'idan pastroq bo'lganda kompaniya orqali daromad olish qulayligi;

– futbolchiga nisbatan shaxsan da'vo qo'yish o'rniga kompaniyaga da'vo qo'yiladi;

– kompaniya huquqlari meros qilib qoldirilishi osonroq;

– kompaniya turli sohalarda bir vaqtda litsenziya berishi mumkin.

**NFT va raqamli tijoratlashtirish vositalari.** Non-Fungible Token (NFT) bu – blokchain texnologiyasiga asoslangan raqamli aktivlar – futbolchilarning individual tasvirlarini, gol videolarini va boshqa raqamli kontent shakllarini to'g'ridan-to'g'ri muxlislarga sotish imkonini bermoqda<sup>26</sup>. Huquqiy jihatdan NFT tijoratlashtirish quyidagi muammolarni keltirib chiqaradi:

– tovar belgisi va mualliflik huquqi masalalari;

– smart-shartnoma majburiyatlarining fuqarolik huquqidagi shartnomalarga muvofiqligi;

– xalqaro xarakter (blokchain chegara bilmaydi).

O'zbekiston qonunchiligi NFT va smart-kontraktlar uchun maxsus huquqiy tartibni xali belgilashda dastlabki bosqichda turibdi.

**O'zbekiston qonunchiligining amaldagi holati va muammolar.** Mamlakatimizda professional futbolchilarning imidj huquqlarini tartibga soluvchi normalar bir necha qonunchilik hujjatlarida tarqoq holda mavjud:

*Birinchi*dan; Fuqarolik kodeksining 99-moddasida shaxsning tasviriga bo'lgan huquqni belgilaydi. Bu norma himoya funksiyasini bajaradi, tijoratlashtirish mexanizmini tartibga solmaydi;

*Ikkinchi*dan; “Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida”gi qonun – rasm, foto va videomateriallarga nisbatan mualliflik huquqini tartibga solidi, ammo “shaxsiy imidj” alohida obyekt sifatida aniqlanmagan;

*Uchinchi*dan; “Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqqan joy nomlari to'g'risida” gi qonun – futbolchilarning o'z nomlarini tovar belgisi sifatida ro'yxatdan o'tkazishiga texnik jihatdan ruxsat beradi ( Ushbu qonun shaxslar o'z nomlarini tovar belgisi

---

ko'rsatadi.

<sup>24</sup> O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV bo'limi. Litsenziya shartnomasining umumiy qoidalari 1036-1040 -moddalarda belgilangan, ammo bu normalar asosan turdosh va mualliflik huquqiga yo'naltirilgan. <https://www.lex.uz/docs/-180552#-197298>

<sup>25</sup> Schaaf, P. Sports Inc.: 100 Years of Sports Business. Prometheus Books, Amherst, 2004. ISBN: 978-1-59102-059-6. VII bob: “Sponsorship and Licensing”, pp. 189–231. Homiylik va litsenziya shartnomalari o'rtasidagi huquqiy farqni batafsil yoritadi.

<sup>26</sup> Sorare. Official Whitepaper v2.0, 2022. URL: <https://sorare.com/whitepaper>. La Liga, Bundesliga, Serie A klublari va futbolchilari bilan tuzilgan litsenziya shartnomalari asosida NFT futbolchi kartochalari chiqariladi; smart-kontrakt orqali royalti avtomatik taqsimlanadi.

sifatida ro'yxatdan o'tkazishiga ruxsat beradi, ammo professional sportchilar uchun imtiyozli tartib belgilanmagan);

*To'rtinchidan;* "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun – sport sohasidagi huquqiy munosabatlarni umumiy tarzda tartibga solidi, imidj huquqlari haqida maxsus normalar mavjud emas.

Tahlil natijasida shuni aytish mumkinki, O'zbekiston qonunchiligida professional futbol sohasida imidj huquqiy borasida quyidagi huquqiy bo'shliqlar mavjud:

- Imidj huquqlari va uning obyektining aniq ta'rifi yo'qligi;
- Tijorat maqsadida imidj huquqlarini berish (litsenziya) mexanizmi belgilanmaganligi;
- Imidj huquqlari shartnomasini mehnat shartnomasidan ajratish tartibi normativ jihatdan tartibga solinmaganligi;
- Spin-off kompaniyalarga imidj huquqlarini topshirishni huquqiy tartiboti yo'qligi;
- NFT va smart-shartnomalar orqali imidj huquqlarini amalga oshirishga oid normalar yo'qligi;
- Imidj huquqlarini buzganligi uchun fuqarolik-huquqiy javobgarlik choralari aniqlanmagan.

**Taklif va xulosalar (de lege ferenda). Yuqoridagilardan kelib chiqib, qonunchilikni takomillashtirish bo'yicha quyidagi takliflar berilmoqda:**

*1-taklif:* Fuqarolik kodeksiga "Imidj huquqlari" bobini kiritish. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksining IV bo'limiga "Shaxsning imidj huquqlari" deb nomlangan alohida bob kiritilishi tavsiya etiladi. Ushbu normada obyektlar to'liq ro'yxati belgilansin, imidj huquqlarini tijorat maqsadlarida berish asoslari tartibga solinsin, rozilik mexanizmi va kollizion normalar aniqlansin;

*2-taklif:* Professional sport shartnomalariga oid maxsus normalar kiritish. "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonunga qo'shimcha sifatida professional sportchilar bilan tuzilgan shartnomalarga oid maxsus normalar ishlab chiqilishi zarur, imidj huquqlari shartnomasini mehnat shartnomasidan alohida rasmiylashtirishni ta'minlash, to'lovlar nisbatiga yo'riqnoma va spin-off kompaniyaga topshirish tartibi belgilanishi kerak;

*3-taklif:* Raqamli imidj huquqlari va NFT uchun alohida tartibga solish masalasini kiritish kerak. Imidj huquqlarining raqamli shakllarini (NFT, metaverse avatar, sun'iy intellektga asoslangan tasvir) tartibga soluvchi normalarni maxsus hujjat orqali belgilash lozim, smart-shartnoma asosidagi litsenziya shartnomasining fuqarolik-huquqiy talablarga muvofiqligi, NFT platformalarida imidj huquqlariga egalik va ularni o'tkazish qoidalari va sun'iy intellekt tomonidan yaratilgan sportchi tasvirlariga nisbatan huquqiy rejim belgilash kerak;

*4-taklif:* Tovar belgisi ro'yxatdan o'tkazish amaliyotini kengaytirish lozim. O'zbekiston Respublikasi Adliya vazirligi bilan hamkorlikda professional futbolchilarning o'z nomlarini, laqablarini va logotiplarini tovar belgisi sifatida tezkor va imtiyozli ro'yxatdan o'tkazish tartibini soddalashtirilishi kerak;

*5-taklif:* O'zbekiston futbol assotsiatsiyasi qoshida Imidj huquqlari bo'yicha maslahat markazi tashkil etish, futbolchilar va agentlarga maxsus huquqiy ta'lim dasturlari ishlab chiqish va sport arbitraji imidj huquqlari bo'yicha nizolarni ko'rish vakolatiga ega bo'lishi kerak;

**Xulosa.** Professional futbolchilarning imidj huquqlari – bu fuqarolik huquqining o'ziga xos, shaxsiy va mulkiy elementlarni sintez qiluvchi mustaqil huquqiy instituti bo'lib, rivojlangan sport huquqi tizimlarida alohida tartibga solish obyektiga aylanib bo'lgan. O'zbekistonda

ushbu institutning normativ poydevori haligacha shakllanmagan. Angliya, Ispaniya va Germaniya tajribasi ko'rsatadiki, imidj huquqlarini samarali tijoratlashtirish uchun uchta asosiy shart zarur:

- imidj obyektlarining aniq huquqiy ta'rifi;
- litsenziya, spin-off va tovar belgisi mexanizmlari;
- maqbul soliq muhiti.

O'zbekistonda ushbu uchala shart ham yetarli darajada ta'minlanmagan. O'zbekistonda 2020–2026-yillarda amalga oshirilgan sport huquqi islohotlari muhim poydevor yaratdi, biroq imidj huquqlari sohasida to'liq tartibga solish tizimi ishlab chiqilishiga ehtiyoj saqlanib qolmoqda. Raqamli texnologiyalar –ayniqsa NFT, metaverse va sun'iy intellekt –imidj huquqlarini tijoratlashtirish sohasi uchun yangi imkoniyatlar yaratyapti. O'zbekiston ushbu tendensiyalarga mos innovatsion tartibga solish modelini tanlashi maqsadga muvofiq.

Ushbu tezisda ilgari surilgan de lege ferenda takliflar qonunchilik organlariga, sport tashkilotlari va akademik hamjamiyatga yo'naltirilgan bo'lib, O'zbekiston futbol sohasining jadal rivojlanib borayotgan davrida o'z dolzarbligi bilan ajralib turadi.

Mamlakatimiz futbolchilariga Jahon chempionati ishtirokidan so'ng, albatta ularning imidj huquqlarini yana bir bork un tartibiga chiqishiga shubhamiz yo'q.

#### Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. O'zbekiston Respublikasi Konsitutsiyasi.2023
2. O'zbekiston Respublikasi Fuqarolik kodeksi. Birinchi va Ikkinchi qism.
3. O'zbekiston Respublikasining "Mualliflik huquqi va turdosh huquqlar to'g'risida"gi qonun.
4. O'zbekiston Respublikasining "Jismoniy tarbiya va sport to'g'risida"gi qonun.
5. O'zbekiston Respublikasining "Tovar belgilari, xizmat ko'rsatish belgilari va tovar kelib chiqish joylari nomlari to'g'risida"gi qonuni.
6. Ley Orgánica 1/1982, de 5 de mayo, de Protección Civil del Derecho al Honor, a la Intimidad Personal y Familiar y a la Propia Imagen. España.
7. Ley 35/2006, de 28 de noviembre, del Impuesto sobre la Renta de las Personas Físicas. España.
8. Grundgesetz für die Bundesrepublik Deutschland, 23. Mai 1949. Art. 1 (Menschenwürde) & Art. 2 (Allgemeines Persönlichkeitsrecht).
9. FIFA Regulations on the Status and Transfer of Players (RSTP). Edition 2023. Zurich: FIFA.
10. UEFA Club Licensing and Financial Sustainability Regulations. Edition 2022. Nyon: UEFA.
11. Irvine and others v Talksport Ltd [2003] EWCA Civ 423. Court of Appeal, England and Wales.

12. Henderson v Radio Corporation Pty Ltd [1969] RPC 218. NSW Supreme Court, Australia.
13. Bundesgerichtshof (BGH), I ZR 49/97, 1. Dezember 1999 — Marlene Dietrich.
14. Blackshaw, I.S. & Siekmann, R.C.R. (eds). Sport Image Rights in Europe. T.M.C. Asser Press, The Hague, 2005.
15. Gardiner, S., James, M., O’Leary, J., Welch, R. Sports Law. 5th edition. Routledge, London, 2017.
16. Schaaf, P. Sports Inc.: 100 Years of Sports Business. Prometheus Books, Amherst, 2004.
17. Netzle, S. «Image Rights of Athletes». The International Sports Law Journal (ISLJ), 2003, No. 1-2.
18. Azimov Ya.X. “Sport sohasidagi fuqarolik-huquqiy munosabatlar”. Davlat va huquq. 2022, № 2.
19. Mirzayev A.A. “O‘zbekistonda intellektual mulk huquqlarini takomillashtirish masalalari”. O‘zbekiston huquqshunosligi jurnali, 2023, № 4.
20. Rahimov J. “Professional futbolchilarning huquqiy maqomi”. Doktorlik dissertatsiyasi 1-bobi (qo‘lyozma). Toshkent, 2025.
21. Yetmishboyev M. 2023. Sport sohasidagi munosabatlarni tartibga solishda. “Lex sportiva” tushunchasi va ahamiyati. Sport ilm-fanining dolzarb muammolari. 1, 1 (Aug. 2023), 99–103.
22. Етмишбоев М. Спорт агентлари фаолиятини лицензиялаш масалалари //Общество и инновации. – 2023. – Т. 4. – №. 6/S. – С. 381-386.
23. WIPO. «The Right of Publicity». WIPO Magazine, 2017/01. URL: [https://www.wipo.int/wipo\\_magazine/en/2017/01/article\\_0006.html](https://www.wipo.int/wipo_magazine/en/2017/01/article_0006.html)
24. HMRC. Employment Income Manual, EIM64200. URL: <https://www.gov.uk/hmrc-internal-manuals/employment-income-manual/eim64200>
25. Premier League, Rules and Regulations, 2023–24 Season. Rule K: Contracts. FA Premier League Limited, London.
26. Deutsche Fußball Liga (DFL). Lizenzierungsordnung 2023/24, Anhang IX.
27. O‘zbekiston Futbol Federatsiyasi. Strategik Rivojlanish Dasturi 2021–2030. URL: <https://ufa.uz/uz/strategy>
28. Sorare. Official Whitepaper v2.0, 2022. URL: <https://sorare.com/whitepaper>
29. NBA Top Shot / Dapper Labs. Platform Overview, 2021. URL: <https://nbatopshot.com>
30. Forbes. «Cristiano Ronaldo’s Lifetime Nike Deal: Details Revealed». 7 November 2016.